



TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI


TOSHKENT SHAHRIDA XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI

2023-YIL
YANVAR-MAY



Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "Toshkent shahrida da xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

1) Shu va keyingi o'rinlarda 2019-2022- yillar ko'rsatkichlari har bir keyingi yil metodologiyasiga muvofiq qayta ko'rib chiqilgan

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-may)

Tumanlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Toshkent shahar	69 446,0	100,0	117,6
Uchtepa	3 862,9	5,6	111,3
Bektemir	2 415,4	3,5	114,1
Yunusobod	11 079,4	16,0	122,2
Mirzo Ulug'bek	6 954,7	10,0	122,8
Mirobod	7 494,6	10,8	111,3
Shayxontohur	7 730,8	11,1	120,9
Olmazor	5 644,6	8,1	114,4
Sergeli	3 600,1	5,2	123,4
Yakkasaroy	6 009,6	8,7	114,5
Yashnobod	6 058,6	8,7	118,3
Yangiyul	1 107,5	1,6	118,1
Chilonzor	7 487,8	10,8	116,0


1) tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar narxini aks ettiradi.

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2023- yil yanvar-may)

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan Toshkent shahrida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Tumanlar	Hajmi, <i>mlrd. so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	69 446,0	100,0	117,6
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	7 509,7	10,8	125,0
Moliyaviy xizmatlar	22 757,9	32,8	122,8
Transport xizmatlari	6 740,8	9,7	118,3
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	3 346,6	4,8	109,9
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	3 196,6	4,6	113,4
Savdo xizmatlari	15 203,7	21,9	112,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	2 279,5	3,3	114,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	3 057,2	4,4	120,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	1 453,8	2,1	105,9
Ijara xizmatlari	938,4	1,4	107,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	302,5	0,4	108,6
Shaxsiy xizmatlar	733,8	1,1	103,7
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	1 466,8	2,1	104,5
Boshqa xizmatlar	3 805,2	5,5	112,2




2019- yil yanvar-may oylariga nisbatan **2023-** yilning mos davrida moliyaviy xizmatlar hajmi **15 514,0** mlrd. so'mga oshib, **22 757,9** mlrd. so'mga yetdi. Jami xizmatlar hajmida moliyaviy xizmatlarning ulushi **32,8** foizni tashkil etdi. Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **122,8** % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlari uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Moliyaviy xizmatlar tarkibi

(2023- yil yanvar-may)

2023-yilning yanvar-may oylarida moliyaviy xizmatlar tarkibida sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari xizmatlarning ulushi **88,9** % ni tashkil etdi.




Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **32,8** foizni yoki **22 757,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-may oylariga nisbatan Yunsobod tumanida yuqori o'sish sur'ati **134,9** % ni tashkil etdi.




2023- yilning yanvar-may oylarida transport xizmatlari hajmi **6740,8** mlrd. so'mni tashkil etib, **2022- yilning** mos davriga nisbatan ushbu xizmat turining o'sish sur'ati **118,3** % ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **9,7** % ni tashkil etdi.



Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.


2023- yilning 1-iyun holatiga ko'ra, asosiy faoliyat turi tashish va saqlash bilan bog'liq bo'lib, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **314** birlikni, yoki ularning umumiy sonining **8,5** % ini tashkil etdi. Ulardan **3713** birlik (**91,5** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Transport xizmatlarining turlari bo'yicha tarkibi (2023- yil yanvar-may)



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **46,6** %.





Oʻzbekiston geografik joylashuvining muhim xususiyati zamonaviy transport kommunikatsiya tizimining mavjudligidir.


2019- yilning yanvar-may oylariga nisbatan Toshkent shahrida transport xizmatlari hajmi **2677,1** mlrd. soʻmga oshib, hisobot davrida **6740,8** mlrd. soʻmni tashkil etgan. **2022-yilning yanvar-may** oylariga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlari hajmining oʻsish surʻati **117,2** % ni tashkil etgan.

Mirzo Ulugʻbek tumanida ushbu koʻrsatkich **525,2** mlrd. soʻmni tashkil etdi. Bunda mazkur xizmatlarning oʻsish surʻati **113,7** % ni tashkil etdi.



Avtomobil transporti xizmatlari

(2019-2023-yillar yanvar-may)



2022-yil yanvar-may oylariga nisbatan ushbu xizmatlarning o'sish sur'ati **109,9%** ni tashkil etdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **4,8 %** ni tashkil etdi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.


2023- yilning yanvar-may oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **3346,6** mlrd. so'mga yetdi.



Avtomobil transporti xizmatlarining tarkibi

Avtotomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida yo'lovchilarni tashish xizmatlari ustunlik qiladi – **58,5 %**.

Taqqoslash uchun: 2022- yilning yanvar-may oylarida ushbu ko'rsatkich **58,8 %** ni tashkil etgan.




Savdo xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-may)

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan **2023-yilning yanvar-may** oylarida savdo xizmatlari hajmi **23 224,9** mlrd. so'mga oshib, **11 032,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.

2023-yilning yanvar-may oylariga nisbatan ushbu xizmat turi bo'yicha o'sish sur'ati **107,9 %** ga yetdi.




Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlarini orasidagi farqning umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlarini uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.



2023-yilning 1-iyun holatiga ko'ra xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar umumiy sonida savdo faoliyati bilan band bo'lganlarning ulushi **10,2 %** yoki **3024** birlik bilan ustunlik qiladi, shundan **89,8 foizi (2 9654** birlik) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2019-2023- yillar yanvar-may)




2023- yilning yanvar-may oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **7 509,7** mlrd. so'mdan iborat bo'lib, **o'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **125,0** % ni tashkil etdi.



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

2023- yilning 1-iyun holatiga ko'ra "Axborot va aloqa" faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar soni **726** birlikka yetdi, shundan **4294** birligi (umumiy sonining **83,1** %) kichik tadbirkorlik subyektlari hisoblanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-may)



Tumanlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2023-yil yanvar-may)


	Hajmi, mlrd. soʻmda	Ulushi, % da	Oʻsish surʼati, % da
Toshkent shahar	7509,7	10,8	125,0
Uchtepa	316,6	8,2	117,2
Bektemir	136,6	5,7	117,0
Yunusobod	1279,8	11,6	117,5
Mirzo Ulugʻbek	640,6	9,2	120,6
Mirobod	983,3	13,1	137,5
Shayxontohur	915,1	11,8	127,9
Olmazor	811,8	14,4	120,6
Sergeli	310,5	8,6	117,1
Yakkasaroy	814,6	13,6	146,0
Yashnobod	731,4	12,1	122,5
Yangihayot	18,2	1,6	129,2
Chilonzor	551,1	7,4	118,9

¹⁾ tumanlar boʻyicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

2021-yilning yanvar-may oylariga nisbatan Yunusobod tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **1 023,4** mlrd. soʻmga oshib, koʻrib chiqilayotgan davrda **256,5** mlrd. soʻmga yetdi. Mazkur xizmatlarning umumiy hajmida ushbu hududning ulushi **11,6 %** ni tashkil etdi.

Yunusobod tumanida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi **1 279,8** mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-may)



2023- yil yanvar-may oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **3057,2** mlrd. so'mga yetdi. **O'tgan yilning mos davriga** nisbatan o'sish sur'ati **120,9 %** ni tashkil etdi.




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2023- yilning yanvar-may** oylarida ularning ulushi **4,4 %** ni tashkil etdi.

“Ta'lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.





2023- yil yanvar-may oylarida sog'liqni saqlash xizmatlari hajmi **1453,8** mlrd. so'mni yoki ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining **2,1 %** ini tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

2023-yilning 1-iyun holatiga ko'ra sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'minot sohasi xizmatlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **113** birlikni tashkil etdi, shundan **1707** birlikni kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etdi.


Tumanlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-may, mlrd. so'mda)



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-may)

2019-yilning yanvar-may oylariga nisbatan 2023- yilning ushbu oylarida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning hajmi **2 156,7** mlrd. so'mga oshib, **3 196,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.


Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

2023-yilning 1-iyun holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni **343** birlikni tashkil etgan bo'lsa, ulardan **5019** birligi (umumiy sonining **97,7%**) kichik tadbirkorlik subyektlaridir.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi
(2023- yil yanvar-may)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-may)



2023- yilning yanvar-may oylarida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi **2 279,5** mlrd. so'mni tashkil etdi. Xizmatlarning umumiy hajmida ularning ulushi **3,3 %** ni tashkil etdi. **2022-yilning yanvar-may** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **114,4 %** ni tashkil etgan.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Tumanlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar hajmi

(2023- yil yanvar-may, mlrd. so'mda)




¹⁾ tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Me'morchilik sohasidagi xizmatlar (2019-2023- yillar yanvar-may)

2023- yilning yanvar-may oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **1466,8** mlrd. so'mga yetdi.

Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi esa **2,1 %** ni tashkil etdi. **2022-yilning yanvar-may** oylariga nisbatan o'sish sur'ati **104,5 %** ni tashkil etdi.



Tumanlar kesimida me'morchilik sohasidagi xizmatlar hajmi


**Toshkent shahar.–
1466,8**

(2023- yil yanvar-may, mlrd. so'mda)



Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar (2019-2023-yillar yanvar-may)



2023- yilning yanvar-may oylarida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi **302,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etilib, **2022- yilga** nisbatan o'sish sur'ati **108,6** %ni tashkil etdi.



Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining tarkibi (2023- yil yanvar-may)




Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish; kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Ijara xizmatlari

(2019-2023- yillar yanvar-may)

2019- yilning yanvar-mayiga nisbatan o'rganilayotgan davrda ijara xizmatlari hajmi **495,7** mlrd. so'mga oshib, **938,4** mlrd. so'mga yetdi. Xizmatlarning umumiy hajmidagi ulushi **1,4** % ni tashkil etdi.



Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarni operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida **2023-yil yanvar-may** oylarida avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlarining ulushi **55,6** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining kengayishi va rivojlanishi milliy daromadning o'sishiga yordam beradi, aholining munosib hayot sifatini ta'minlashda hal qiluvchi omil hisoblanadi. Xizmatlarning yuqori sifati va xilma-xilligi ishchilarning mehnat unumdorligini oshiradi, iste'mol xarajatlarini kamaytiradi, vaqtni tejashga yordam beradi va bo'sh vaqt samaradorligini oshiradi.

